



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Eshnayev Nortoji  
Jumaevich

*ChDPU Psixolgiya kafedrasida dotsenti  
n.eshnayev@cspi.uz +998(99)853-16-80*

## PEDAGOGIK INNOVATSION TA'LIM KLASTER TIZIMINI AMALIYOTDA QO'LLASH, JAMIYATDA MOBIL MUTAXASSIS TAYYORLASHNING MUHIM ASPEKTLARIDAN BIRI EKANLIGI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, pedagogik innovatsion ta'lim klaster yondashuvini amaliyotga joriy etish, mobil mutaxassis tayyorlashning ijtimoiy zaruriyatlaridan biri ekanligi, jamiyatning yuqori kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini minimallashtirish hamda mazkur masalani samarali tashkil etish yuzasidan ilmiy mulohaza yuritilgan va amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mobil, OTM, pedagogika, innovatsiya, tizimlilik, hududiy, kompetentlik, ta'lim, hakorlik, samaradorlik, strategik, klaster.

**Аннотация:** В данной статье идет речь о реализации кластерного подхода в педагогическом инновационном образовании которой является одной из социальных потребностей подготовки мобильных специалистов, минимизации потребности общества в специалистах с высокой профессиональной компетентностью и эффективной организации этого вопроса.

**Ключевые слова:** Мобильная, вуз, педагогика, инновации, системный, региональный, компетентность, образование, эффективность, результативность, стратегический, кластер.

**Abstract:** In this article, the implementation of the pedagogical innovative education cluster approach is one of the social needs of mobile specialist training, the



minimization of society's need for specialists with high professional competence, and the effective organization of this issue.

**Key words:** Mobile, HEI, pedagogy, innovation, system, regional, competence, education, efficiency, efficiency, strategic, cluster.

**Kirish.** Bugungi informatsion jamiyatda ilm-fan tengsiz kurashlar va o‘zaro ziddiyatli nazariya hamda nomutunosib ilmiy gepotezalar negizida jadal rivojlanish ta‘sirida kechmoqda. Bu jarayon ta‘lim sohasida ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib qolmasdan, uning sifat va mazmuniga ham daxldorligini namoyon etib, bu borada yangicha izlanish va innovatsion metodik yondashuvlarni taqozo etadi.

Mazkur jarayon turli xil ta‘lim tizimlari o‘rtasidagi mobil raqobat muhitini yuzaga keltirib, tizimli, hududiy, mintaqaviy va global raqobatning asosiy elementiga aylandi. Shuningdek, ta‘lim texnologiyalarini muvofiqlashgan dastur asosida doimiy yangilab turishni, yangiliklarni tezkor o‘zlashtirishni, ta‘limda istiqbolli loyihalar ustida ilmiy izlanish olib borish va dinamik o‘zgaruvchan dunyo talablariga monand ravishda ichki va tashqi mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga muvofiqlashtirish va kadrlar mobilligini ta‘minlashga qaratilmoqda.

Nuqtai nazarimizcha, bu borada qisqa va uzoq muddatli zamonaviy ilmiy nazariyalariga asosan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, ta‘lim muassasalari faolligini pedagogik innovatsion ta‘lim klasteri doirasida rivojlanish strategiyasi, zamonaviy mobil modelga asoslangan bo‘lmog‘i lozim.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishni rivojlantirishning innovasion turiga o‘tish mavjud bo‘lib, bu oliy ma‘lumotli mobil va yuqori kompetentlikka ega bo‘lgan mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi hamda turli ijtimoiy parametrlarning sifat o‘zgarishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir sifat ko‘rsatgich negizida moliyaviy ta‘minot bo‘lishi tabiiy hol. Bunda albatta oliy ta‘limni moliyalashtirish manbalari tarkibida o‘zgarishlar yuz berishi kuzatiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Mazkur masalada S.Moxnachev va Ye.Moxnachevalar olib borgan tadqiqot ahamiyatli bo‘lib, oliy ta‘limni moliyalashtirish davlat ajratadigan mablag‘lar ulushining pasayishi va OTMLar faoliyatini moliyalashtirishga korporativ xarajatlarni ko‘payishi, ta‘lim tizimi va korporasiyalar ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni (klasterlar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar) shakllantirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘ladi hamda maqsadli tashkil etilgan tadqiqot va tajriba natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishni tezlashtiradi[6].

Ta‘lim muassasalarining innovasion faoliyatida klaster yondashuvining qo‘llanilishi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. T.I.Shamova klasterni “hujayra” deb tushunadi va ta‘lim hamda boshqa sohalar raqobatdoshligini ta‘minaydi



degan ilmiy mulohazani ilgari surgan. Uning nuqtai nazaricha, mazkur jarayon manfaatdor tomonlar sa'y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli hamda mobil traektoriyani yuzaga chiqaradi[8].

L.Bespalova esa klaster - bu bir nechta teng qismlardan tashkil topgan, o'zboshimchalik bilan ishlayotgan komponentlar ishdan chiqqan taqdirda o'zining to'liq funksional samaradorligini saqlaydigan tuzilma deb hisoblaydi[1]. Ushbu har ikki nuqtai nazar mazmun va ilmiy-amaliy jihatdan bir tushunchani anglatishini tushunish mumkin, ya'ni maqsadli va samarali natijaga erishish omilidir. "Klaster" atamasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu tushuncha ilk bir iqtisodiyot keng qo'llanilgan bo'lib, ma'lum bir hududda mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish korxonalarini guruhini iste'molchilar va etkazib beruvchilar zanjiri tamoyilini kompleks manfaatli qamrovini o'z ichiga olgandir.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida dastlab raqobatbardoshlik muammolarini o'rganishda qo'llanilgan klaster yondashuvi vaqt o'tishi jarayonida amaliy samaradorligi hamda mobil integratsion xususiyati bilan bir qancha muammolarni hal qilishda, xususan, innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun asos sifatida namoyon bo'la boshladi. L.Bespalova tashkilot va korxonaning klaster shakli innovatsiyalarni maxsus shakli - "yig'ma innovatsion mahsulot" yaratilishiga olib keladi, deb hisoblaydi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi:** Analiz va sintez hamda prognozlashtirish metodlaridan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, klaster - bu majmua bo'lib, uning asosiy faoliyat ko'rsatayotgan ob'ekt va sub'ektlari bazaviy korxonalar, ta'lim muassasalari va ota-onalardan iborat ijtimoiy institutlardir. Ushbu masalani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, OTM, kollej, texnikum va kasb-hunar maktablarida ta'lim oluvchi o'z ixtisosligi bilan faqat amaliy mashg'ulotlar davomida tanishishi mumkin. Ammo respublika byudjetidan qo'shimcha amaliyot uchun moliyalashtirishning moddiy bazasi nazarda tutilmagan, qolaversa to'liq ta'minlay olmaydi. Ushbu masalani optimal yechimi sifatida klaster doirasida ta'lim oluvchini amaliy bilim va ko'nikmalari hamda kasbiy kompetentligini oshirish uchun ishlab chiqarish (amaliy jarayon)ning haqiqiy sharoitlariga maksimal darajada yaqinlashtirish uchun davlat, ta'lim muassasasi va korxonalar - kelajakda ish beruvchi maqsadli manfaatdorlik doirasida hamkorlik masalalari yuzasidan mobil trayektoriyaga ega bo'lgan, kordinatsion faoliyat birligini uyg'unlashtirishi lozim.

Bunda ta'lim muassasalari o'quv jarayoni tayanch korxonalar bilan muvofiqlashtiriladi hamda ilmiy samaradorlik, ta'lim va kadrlar salohiyatini saqlab qoladigan kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmog'ini qayta qurish bo'yicha eng maqbul klaster varianti komplekslari yaratildi. Turli darajadagi kasb-hunar ta'limi muassasalari, tarmoq vazirliklari va idoralari, korxonalarini birlashtirgan o'quv klasteri



mavjud muammo va yechimini kutib yotgan masalalarni samarali hal qilishga imkon beradi.

Buning natijasida:

-kadrlar tayyorlash tarkibini optimallashtirish, o‘zaro hamkorlik va manfaatli yangicha yondashuv yuzaga keladi;

-ta’lim sifatini oshirish uchun lozim bo‘lgan hamkorlikda yangi fan o‘quv dasturlarining yangi avlodini yaratish imkoniyati ta’minlanadi;

-kompleksli, yangi avlod kasbiy ta’lim tizimi yaratilib, dual mobil kasblarning zamonaviy qiyofasi shakllanadi hamda har qanday beqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishga barqaror moslashuvchanligi ortadi;

-respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining yetakchi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishni ilmiy qo‘llab-quvvatlash salohiyati yuksaladi;

-jamiyatdagi noyob qobiliyat va intellektlarni yuzaga chiqarishning kafolatli tizimi yuzaga kelib, barcha sohani iqtidorli mutaxassislar bilan ta’minlash mexanizmi ishga tushadi;

-oliy ta’lim tizimlari kadrdan mobil mutaxassis tayyorlash jarayoniga o‘tadi hamda kasbiy qo‘nimsizlik barham topib, malakali va yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatning turli sohalarida barqaror faoliyat olib borishi kafolatlanadi.

Bugungi kunda respublikada turli darajadagi ta’lim muassasalarini assosiativ asosda birlashtirgan agrar klasterlar samarali faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, pedagogik sohada ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Pedagogik OTMlarda ta’lim tizimi mazmuni, ta’lim faoliyati bilan to‘ldirilib, tizimli boshqariladigan tarmoq, dasturlar bilan tartibga solinadigan ta’lim jarayoni, ta’lim mazmunini tashuvchilar va o‘qituvchining motivasion yondashuv uyg‘unligi ta’lim maqsadlariga erishishda barqaror infratuzilmani yuzaga keltiradi.

Bu jarayon uchta darajada amalga oshiriladi:

- OTM va mas’ul bo‘lgan professional (kollej, texnikum) ta’lim muassasalarining tizimli va munitsipal (mahalliy hokimiyat) darajadagi umumiy o‘rta maxsus ta’lim hamda maktabgacha ta’lim muassasalarining manfaatli hamkorligi doirasida;

- o‘zaro yaqin aloqada bo‘lgan kompaniya (yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi va boshqa) va tegishli tashkilotlar (ta’lim muassasari, davlat organlari, infratuzilma xizmatlari)ning tizimli va mobil faoliyat muvofiqligida;

- samarador va istiqbolli loyihalarni mujassamlashtirgan klaster texnik va texnologik yutuqlarni rejalashtirish hamda yangi “ist’emolchi va bozor uyalarini”, “ehtiyoji yuqori bo‘lgan talab va taklif” muhitini yaratish uchun faoliyatni birlashtirish hamda maqsadlar muvofiqligini ta’minlash zaruratini mavjudligi negizida.



Klaster mexanizmini o'zida aks ettirgan mazkur jarayon, ma'lum sohalarda o'rtasida anglangan faoliyat sifatida o'zini namoyon etgandagina ilmiy – amaliy integratsiyalarni yuzaga chiqaradi. Klasterning o'ziga xos xususiyatlari integratsiyani tarmoq shakli yuzasidan namoyon bo'lishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar S.Moxnachev va Ye.Moxnachevalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi:

- klasterga kiritilgan mavzular geografik joylashuvi bilan bog'langan bo'lishi lozimligi;

- klaster tuzilishining asosini birlashtiruvchi yadro rolini o'ynaydigan yirik sanoat korxonasi tashkil etilganligi;

- klaster faoliyatining xususiyatlaridan qat'i nazar, asosiy jihatlar bilan bog'liq bo'lgan (xizmat ko'rsatish sohalari, xizmat ko'rsatuvchi firmalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, OTMlar, bozor vositachilari va boshqalar) barcha korxonalar va muassasalarni o'z ichiga olganligi [6].

**Tahlil va natijalar:** Nuqtai nazarimizcha, bugungi kunda pedagogik innovatsion ta'lim klaster strategiyasi OTM, kollej, texnikum, kasb-hunar maktablari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va MTT ta'limi tizimida sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi. Sababi, bu davlat va jamiyat iqtisodiyotining o'ziga xos ehtiyojlariga va uning yo'nalishiga mos keladi.

Pedagogik innovatsion ta'lim klasterini muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim omili, davlat dasturida ifodalangan barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligi bo'lib, uning maqsadini amalga oshirish uchun barcha sohadagi davlat va nodavlat tashkilotlari maqsadi atrofida birlashadi.

Pedagogik innovatsion ta'lim klasterini tashkil qilish uchun ishtirokchilar o'rtasida bir-biriga nisbatan yuqori ishonch talab etiladi. Ta'lim klasterning innovatsion rivojlanish dasturini asosiy g'oyasi ma'lum hududda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun to'liq foydalanish kerak bo'lgan bilim resurslari maqsadli yo'naltirishni taqozo etadi. Dasturning xususiyati o'zaro manfaatdorlik va samaradorlik mexanizmiga asoslanganligiga bog'liq. Misol uchun, respublikamizning ba'zi viloyat va tumanlari muhim tabiiy resurslarga ega emas, uning geografik holati xorijiy investitsion loyihalarni joriy etishga imkon bermaydi. Bunday vaziyatda hududning ijtimoiy holati va iqtisodiy barqarorligi faqat bilimga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunda albatta ta'lim muassasalarini, xususiy kompaniyalarni, davlat organlarini, davlat-xususiy sherikligini, nodavlat tashkilotlarini, o'zini o'zi boshqarish organlarini yagona tizimga birlashtirish uchun manfaatli loyihalar zarur. Bu jarayon klaster doirasida amalga oshiriladi va manfaatlarni uyg'unligini ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri - bu innovatsion mafkura asosida



shakllangan yagona iqtisodiy va ijtimoiy hamda ma'naviy va madaniy ta'lim makoni desak mubolag'a bo'lmaydi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida OTMlar davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik va manfaatdorlik nuqtai nazarida "mahsulot" ishlab chiqarish va uni mehnat bozori raqobatbardoshligi hamda mobilliligini ta'minlashning to'liq mas'uliyatini olishi lozim.

OTM "mahsuloti" deganda, talab va taklifni taqozo etadigan, mehnat bozori va iqtisodiyot "tili" bilan aytganda, biz ishlab chiqaradigan asosiy "mahsulot" - bu mobil va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassisdir.

Bugungi kun va ertangi istiqbolda mehnat bozorida ushbu "mahsulotni" iste'molchilarga taklif va tavsiya etish, ularni bandligini ta'minlash ta'lim klaster doirasidagi o'zaro aloqalardan iborat. OTMlar "mahsulotlari"ning xaridor va iste'molchilari respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat va nodavlat tashkilotlardir. Shundan kelib chiqib, ta'lim klasteri doirasida fundamental ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish davr talabi ekanligini barchamiz anglashimiz, qolaversa faoliyatimizni shunga muvofiqlashtirishimiz zarurdir.

O.E.Yavorskiy ta'lim klasterini - tarmoq va korxonalar bilan sheriklik asosida birlashtirilgan o'zaro bog'liq bo'lgan OTM va kasb-hunar ta'limi muassasalari majmui ekanligini ta'kidlab, uning muhim o'ziga xos xususiyatlari - bu turli darajadagi kasb-hunar ta'limi darajasiga ega mutaxassislarni shakllantirish uchun sharoit yaratish, yuqori malakali mutaxassis va kasblar obro'sini ko'tarish hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan birlashtirishdir deydi [11].

**Xulosa:** Xulosa qiladigan bo'lsak pedagogik ta'lim innovatsion klasterini shakllantirish quyidagi afzalliklarga ega bo'lishga imkon beradi:

-Sifat va samaradorlikka ega bo'lgan yagona deformatsion ta'lim makonini yaratadi;

- bilim va tafakkur hamda kasb-hunar ta'limini sanoat korxonalar bilan birlashtiradi;

- manzilli va hududiy tizim hamda tarmoq doirasidagi integrasiya orqali yangi sinergetik sifatni ta'minlaydi;

- mutaxassislarni o'qitish vaqtini qisqartirish va tayyorlash xarajatlarini kamaytiradi;

-ta'lim sifatini oshirish va mutaxassislar mobilliligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

**Takliflar:** Ushbu natija samaradorligi va jozibadorligini yanada oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- Ijtimoiy sheriklik asosida pedagogik ta'lim innovatsion klasterining (OTM, kollej, texnikum, kasb-hunar maktablari, umumiy o'rta ta'lim maktabi, MTT kesimida)



rivojlanish strategiyasini zamonaviy qiyofasini shakllantirish va amalga oshirishni kompleks mexanizmini yaratish lozim; - pedagogik ta'lim innovatsion klasterining asosiy vazifasi sifatida hududiy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning istiqbolli hamda manfaatdorli loyihalar doirasida faoliyatini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq; - sherikchilik texnologiyasidan foydalangan holda OTM va maktab o'quv klaster loyihalarini strategiyasini belgilash zarur; - yuqori potensialda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amalga oshirish uchun hududiy, mintaqaviy va halqaro doirada hamkor tashkilotlar bilan istiqbolli loyihalar ishlab chiqish va shartnomalar tuzish kerak; -manzilli va hududiy ta'lim klasteri doirasida ta'limning integrasiyasini axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan kelib chiqib istiqbolli ishlanmalarni rivojlantirish, o'zlashtirish va ilmiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim faoliyati uchun o'sish nuqtasini belgilash lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Беспалова Л. Что такой кластер? URL: [Http // siok. Rightside. Ru / siok/2009-12-01-06-24-41](http://siok.Rightside.Ru/siok/2009-12-01-06-24-41)
2. Зеер Э.Ф., Кормильцева М.В. Социально-личностные компетенции и профессиональная мобильность как целевая ориентация образования // Сибирский педагогический журнал, 2009, №. 10, с. 72-78.
3. Калиновский Ю.И. Развитие социально-профессиональной мобильности андрагога в контексте социокультурной образовательной политики региона : дис. ... д-ра пед. наук. СПб., 2001 -С.42
4. Ластовский А.Л. Трансформация концепта «социальная мобильность» постсоветской социологии // Социология. 2011. № 3. С. 47-52.
5. Мищенко В. А. Региональная модель формирования профессиональной мобильности студентов: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.08 / Мищенко Владимир Александрович. – Москва, 2012. – 40 с.
6. Мохначев С., Мохначева Е. Удмуртская Республика: кластеризация и ее влияние на региональный рынок труда и профессиональное образование. URL: <http://chelt.ru> 2010.5-10 mohna4ev.5-10.html.
7. Панкова Т.Н. Профессиональная мобильность как неотъемлемая характеристика современного специалиста в системе непрерывного профессионального образования // Вестник Воронеж. гос. ун-та. Сер.: Проблемы высшего образования, 2013, №. 1, с. 99-102.
8. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт.



2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С. 24–29.

9. Эшнаев Н. Ж. Бўлажак педагог мутахассисларнинг касбий мобиллигини шакллантирувчи омилларни илмий-назарий таҳлили / Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш. *3/2-сан. 2023.*-Б.102-108.

10. Эшнаев Н.Ж. ОТМда замонавий мобил мутахассис тайёрлашнинг ижтимоий педагогик-психологик омиллари / Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. *3-son, 2023.* –Б.221-225.

11. Яворский О.Е. Образовательный кластер как форма социального партнерства техникума и предприятий газовой отрасли: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Казань, 2008. 21 с.